

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**MINISTRY OF DIGITAL TECHNOLOGIES
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTANМИНИСТЕРСТВО ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Ibrohim Mo‘minov ko‘chasi, 4-uy

Tel: (+998) 71-238-41-07, 71-238-43-63, Fax: (+998) 71-238-41-74

info@digital.uz, www.digital.uz, digital@exat.uz

2025-y. « 31 » oktabr

25-8/7923

« _____ » 2025 г.

**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 16-sentabrdagi PQ–286-son qarori 9-bandi bilan “Raqamli startaplar” dasturi va (yoki) Markaziy bankning “tartibga solish qumdoni”da ishtirok etuvchi startap loyihalarga “Raqamli hukumat” tizimining Raqamli ma’lumotlar platformasidan axborot xavfsizligi talablari va belgilangan tartibga rioya qilgan holda bir yil muddatga qadar bepul foydalanish imkoniyati taqdim etilishi belgilangan.

Mazkur jarayon, Vazirlar Mahkamasining “Idoralararo elektron hamkorlik tizimi va ma’lumotlarning axborot almashinuvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 20-sentabrdagi 516-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektron hukumat” tizimining Raqamli ma’lumotlar platformasi orqali elektron hamkorlik va axborot almashinuvi tartibi to‘g‘risida” Nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq, Raqamli ma’lumotlar platformasi veb-servislariga ulanish uchun belgilangan tartibda ariza hamda texnologik yo‘riqnoma hujjatlari taqdim etilib, integratsiya amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur jarayon yuzasidan Vazirlikning 2025-yil 31-oktabrdagi 3/240-son buyrug‘i tasdiqlanganligini (ilova qilinadi) ma’lum qilamiz.

Ilova elektron shaklda.

**Vazirning
birinchi o‘rinbosari****O.Umarov**

Ijr.: I.Xodjakulov
Tel.: 71-238-43-74